

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMONAVIY TASVIRIY-PEDAGOGIK TA'LIMDA
AN'ANA VA INNOVATSIYALAR: IZLANISHLAR VA
YECHIMLAR

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Buxoro – 2025

Ilmiy anjumanning dasturiy qo'mitasi

1. O.X.Xamidov – Universitet rektori, rais;
2. K.A.Samiyev – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. O.S.Qahhorov – Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar faoliyatini rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo;
4. B.R. Adizov – BuxDU huzuridagi PKQT MO mintaqaviy markaz direktori, a'zo;
5. Sh.Sh.Olimov – Pedagogika kafedrası mudiri, kotib;
6. M.A.Jumayeva – Pedagogika kafedrası dotsenti, a'zo;
7. G.T.Zaripov – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, a'zo;
8. S.S.Abdullayev – Tasviriy va amaliy san'at kafedrası mudiri, a'zo;
9. T.I.Rajabov – Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası mudiri, a'zo.

Ilmiy anjumanning tashkiliy qo'mitasi

1. K.A.Samiyev – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;
2. O'.U.Rashidov – Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor, a'zo;
3. O.S.Qahhorov – Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti, rais muovini;
4. S.S.Azimov – San'atshunoslik va pedagogika fakulteti dekani, kotib;
5. Sh.Sh.Olimov – Pedagogika kafedrası mudiri, a'zo;
6. A.R.Hamroyev – Pedagogika kafedrası professori, a'zo;
7. S.S.Abdullayev – Tasviriy va amaliy san'at kafedrası mudiri, a'zo;
8. T.I.Rajabov – Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası mudiri, a'zo;
9. N.N.Musayeva – Pedagogika kafedrası professori, a'zo;
10. N.E.Azimova – Pedagogika kafedrası professori, a'zo;
11. B.T.Jurayev – Pedagogika kafedrası dotsenti, a'zo;
12. O.R.Ortiqov – Pedagogika kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
13. M.N. Amonov – San'atshunoslik va pedagogika fakulteti dekan muovini,

O'yin texnologiyalari. O'yin texnologiyalari – boshlang'ich ta'limda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'yin orqali bolalar o'zaro hamkorlikni, raqobatni va bir-birlariga yordam berishni o'rganadilar. O'yinlar orqali o'quvchilar turli muloqot vaziyatlarida ishtirok etadilar, bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlar bolalarga ijtimoiy ro'l o'ynash, boshqalar bilan hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish va konstruktiv fikrlashni o'rgatadi. Shu tariqa, o'yin texnologiyalari bolalarning shaxsiy va jamoaviy munosabatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish boshlang'ich ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, uning bolalar uchun kelajakdagi ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar o'rganish va rivojlanish jarayonida nafaqat akademik bilimlarni, balki muloqot qilish, boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish, hissiy holatlarni boshqarish kabi ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar. Bunday ko'nikmalarni shakllantirishda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchi o'zining shaxsiy namunasini ko'rsatish orqali bolalar uchun muloqotda to'g'ri yo'llarni, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, guruhlarda ishlash va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarga o'zaro munosabatlarni boshqarishda yordam beradi. Ular shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'l bilan o'rganishga, boshqalarga nisbatan empatiya va tushunishni rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu jarayonda pedagogning innovatsion yondashuvlari, shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim tizimida muvaffaqiyatga erishish uchun eng samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmedova, N. (2013). Pedagogika (5-bosqich). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Azimov, A. (2014). Pedagogik texnologiyalar: Teoriya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
3. Davronov, S. (2016). Shaxslararo munosabatlar va uning ta'limdagi roli. O'zbekiston ta'limi, 4(12), 21-24.
4. Jalolov, K. (2015). Boshlang'ich ta'limda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish // O'qituvchi, 9, 32-35.
5. Salimov, M. (2017). Pedagogik ta'lim metodlari. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.
6. Shukurilov, D. (2018). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: Teoriya va amaliyot. Tashkent: Toshkent universiteti nashriyoti.
7. Yuldasheva, D. (2014). Pedagogik jarayonda o'quvchilar bilan shaxslararo munosabatlarni o'rnatish. Ta'lim va tarbiya, 3, 43-46.
8. Kolesnikova, T. (2019). Shaxslararo munosabatlar va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Pedagogik fanlar, 8(3), 87-93.

ZAMONAVIY JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNINI

O.R.Ortikov,

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati yoritiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyat taraqqiyotini ta'minlash maqsadida yoshlarning intellektual va axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimining rivojlantirilishi, ilmiy merosni o'rganish va yosh avlodni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan davlat dasturlari hamda huquqiy hujjatlar o'rganiladi. Maqolada yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, turli tahdidlarga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy qadriyatlar, axloqiy mezonlar, jamiyat tarbiyasi, milliy an'ana va urf-odatlar, zamonaviy tahdidlar, globallashuv ta'siri, madaniy meros, oila va tarbiya, barkamol avlod,

mafkuraviy immunitet, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik, axloqiy inqiroz, rivojlanish omillari

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod ongiga vatanparvarlik, daxldorlik hissini singdirish va ularni yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet bilan qurollantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning ilm-ma'rifatga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, buyuk mutafakkirlar va allomalarning ilmiy merosini o'rganish hamda uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatga ega kadrlarni tarbiyalash bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni madaniy va ilmiy faoliyatga jalb qilish, sport va ijodiy to'garaklarning yetishmovchiligini bartaraf etish orqali ularning sog'lom ruhda kamol topishiga erishish lozim. Zero, ta'lim-tarbiya tizimidagi muammolarni bartaraf etish va yoshlarni ezgu maqsad sari yo'naltirish davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda ilmiy markazlarning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yosh avlodning ongi va tafakkuriga vatanparvarlik hamda daxldorlik tuyg'usini singdirish, ularni zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet bilan ta'minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni oshirish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, ekstremizm hamda terrorizm kabi zararli g'oyalarga qarshi murosasizlikni shakllantirish maqsadida davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini yanada rivojlantirish talab etiladi.

Talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib, madaniy-ko'ngilochar tadbirlar, ijodiy to'garaklar va sport seksiyalarining yetarlicha mavjud emasligi ularning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi va nufuzining pasayishi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining zamon talablariga javob bermasligi yosh avlodni tarbiyalash va ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish borasida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda Sharq Uyg'onish davrining buyuk allomalari tomonidan ilm-ma'rifatga qo'shilgan ulkan hissani inobatga olish muhimdir. Ular diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirib, tafsir, hadis hamda kalom ilmlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, ijtimoiy va tabiiy fanlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etgan, fan va dinning mushtarakligini isbotlagan bu allomalar yoshlarning ta'lim-tarbiyasida beqiyos o'rin tutadi. Shu sababli, ularning ilmiy va ma'naviy merosidan samarali foydalanish bugungi kunda yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sharq xalqlarining, jumladan o'zbek xalqining o'tmishdan yetib kelgan boy ma'naviy-madaniy merosi, o'lmas qadriyatlari ajdodlarimizning, tarixda sahifalaridan o'rin olgan buyuk mutafakkirlarimizning yuksak darajadagi intellektual qobiliyati va salmoqli mehnatlarining natijasidir.

Mutafakkirlarimizning yaratgan ilmiy asarlari, pedagogik qarashlari va g'oyalari bugungi kundagi ko'plab rivojlangan mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotida o'zining muhim ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Ilm-fan taraqqiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, axborot hajmining keskin ko'payishi, shuningdek, fanlar integrasiyasi natijasida yangi fanlarning yuzaga kelishi, jamiyatda raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Ushbu vazifalar asosida jamiyatning ta'lim tizimiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri – yuksak ma'naviy axloqli, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shadigan, rivojlangan davlatlar darajasidagi yuqori malakali, raqobatbardosh intellektual salohiyatga ega kadrlarni tarbiyalash masalasi dolzarbdir. Ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganish asosida talabalarni tarbiyalash va ularning komillikka erishishi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi farmoni, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bo'yicha qabul qilingan PF-158-sonli farmon, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qaror, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining rolini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qaror, 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qaror, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari asosida yetuk, bilimli va yuksak ma'naviyatga ega insonlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi, O'zFA Sharqshunoslik instituti, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan ishlar mamlakatimizda so'nggi yillarda yurtimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmun-mohiyatini keng yoritish, qadim va boy ilmiy-tarixiy merosimizni chuqur o'rganish asosida xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni yot va buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish ustuvor maqsadlaridan biridir.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ajdodlarimiz baqtriya, so'g'd, xorazm qabilalari sivilizatsiya jarayonlari taraqqiy etib, yozuv ixtiro qilinganidan bilishimiz mumkin. Uzoq yillarlar xalqlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'lining aynan Markaziy Osiyoning bir necha shaharlaridan o'tgani esa, ushbu yurtida nafaqat savdo-sotiq, balki ilm-fan va madaniyat taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Tinchlik-totuvlik muhiti hamda sivilizatsiyalararo do'stona muloqot esa ilk davlatchilikning qaror topishi va taraqqiy etishiga ham sharoit yaratgan.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy barkamolligini namoyon qilishi bilan bir qatorda, Uchinchi Renessans davriga poydevori ilm-ma'rifat maskanlari bo'lishi, shubhasiz.

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'rni masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Quyida ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borgan ba'zi olimlar va ularning ishlariga misollar keltirilgan.

O'zbekiston Milliy Universiteti professori vazifasini bajaruvchi To'xtayev "Zamonaviy yuksalish jarayonida ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati" mavzusida tadqiqot olib borgan. Ushbu ishda ma'naviy qadriyatlar sohasidagi yangilanishlar jarayonining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari aniq dalillar asosida o'rganilgan.

Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqotlar universiteti Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi Bahriddin Asrorovich Muqimov "Yangi O'zbekiston yoshlari ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishning maqsad va vazifalari" mavzusida tadqiqot olib borgan. Ushbu ishda Yangi O'zbekistonda yoshlarda ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari yoritilgan.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchilari: "Sharq falsafasining axloqiy qadriyatlari va ularning O'zbekiston ma'naviy hayotidagi o'rni" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotda Sharq falsafasi mutafakkirlarining axloqiy qarashlari va ularning O'zbekiston ma'naviy hayotidagi o'rni o'rganilgan.

Jamiyatda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektikasini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari mavzusidagi maqolada an'anaviylikni atroflicha o'rganish, ushbu sohaga oid mahalliy va xorij tajribalarini nazariy-qiyyosiy tadqiq etish, ma'naviy kamolotga yetaklovchi milliy-axloqiy an'analarni saqlab qolish masalalari ko'rib chiqilgan.

Muhokama va natijalar. Sharq qadim sivilizatsiya chorrahasi bo'libgina qolmay, ilm-fan, san'at, adabiyot namunalarining asosi va beshigi ham bo'lgan, qadimgi va zamonaviy olamning madaniy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Buning natijasida ushbu zaminlardan ko'plab olim-u

ulamolar yetishib chiqdi. Misol uchun astronomiyada Abu Rayxon Beruniy, tibbiyotda Abu Ali ibn Sino, falsafada Abu Nasr Forobiy, matematikada al-Xorazmiy va shuningdek, hadis, fiqh, shariat ilmlari bo'yicha ulamolar kamol topdi. Ilm-fanning rivojlanishi o'rta asrlardagi Uyg'onish davri asosi bo'ldi. Insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan mufakkirlar, ulug' zotlar haqida har qancha gapirsak ham oz.

Dunyoviy va diniy bilim rivojiga hissa qo'shgan, islom dinining ma'naviy tafakkur, aqliy salohiyat va empirik kuzatish haqidagi ta'limotlaridan ilhomlangan ulug' allomalarimiz tufayli bir necha asrlar davomida Sharq va G'arb yarim sharlarida islom ilmiy faoliyati gullab-yashnadi. Islomning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi tufayli Sharq bir necha asrlar davomida taraqqiyotning o'zagi bo'lib kelgan. Bugun ham uning nuri umumbashariy madaniy va ilmiy meros sifatida keng nur sochmoqda.

Ilm-fan birinchi marta Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Hindiston, qadimgi Yunoniston va Rimda rivojlangan. Islom dini paydo bo'lgach, Sharq yana yetakchilikni qo'lga oldi. Matematika va tabiiy fanlar, shuningdek, falsafa va adabiyotda son-sanoqsiz asarlar yaratildi. Ilmiy va zamonaviy sivilizatsiyalarning tegishli fanlari tarjima va sharhlar, tadqiqotlar orqali yosh avlodga yetkazib kelinmoqda. Ayni paytda islom olamidagi yirik ilmiy tadqiqot markazlarida ilg'or talabalar tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda faoliyat boshlagan Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari bu boradagi izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun zamin hozirladi.

Ilm-fan – inson kamolotiga poydevor, ma'rifat va ma'naviyat esa barkamollik ustunlaridir. Zero, qadimgi Sharqda ta'lim va tarbiya hech vaqt ayro yoki biri ikkinchisidan ustun baholanmagan. Bu esa dunyo tamadduniga tamal toshlarini qo'ygan Imom Buxori-yu Al-Xorazmiylar, Imom Nasafiylar-u Al-Farg'oniyalar kabi ne-ne dovrug'i dunyoga doston bo'lgan ulug' qomusiy allomalar bebaho merosida ham namoyon bo'ladi.

Ulug' ajdodlarning donishmandlik an'alariga amal qilib, bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. So'nggi besh yilda mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil va puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Sharq zaminida kamol topgan minglab olimlar va mutafakkirlar islom dini rivojiga juda katta hissa qo'shganlari ma'lum-u mashhurdir, – deydi O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazarov.

Allomalarning ilm-fanga baxshida etgan umri, erishgan yutuqlari va kashfiyotlari hozir ham insoniyatni hayratga solmoqda. Misol uchun, Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan Mahmud Zamaxshariyni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramasdan, dunyoning ko'plab mamlakatlariga safarlar qilgan, chuqur bilimi va ilmiy salohiyati bilan hammani lol qoldirgan. Xorazm faxri va Jurulloh nomlari bilan mashhur bo'lgan alloma Zamaxshariy Makkada bir necha yillar yashab ilm uchun beminnat xizmat ko'rsatgan.

So'nggi yillarda Sharq allomalari ilmiy merosi chuqur o'rganilmoqda. Mutafakkirlarning ilmiy asarlari o'sib kelayotgan avlod uchun bilim va tarbiya manbai bo'lishi bilan birga yangi kashfiyotlarga yetaklaydi.

O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri bo'lib, diyorimizda kamol topgan buyuk mutafakkirlar islom ilmlari bilan bir qatorda dunyoviy fanlar rivojiga ham ulkan hissa qo'shganlari, ularning boy ilmiy-ma'naviy merosi o'zining ahamiyati bilan hozirgi davrda ham xalqaro jamoatchilik tomonidan ham keng e'tirof etilayotgan zamin sanaladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida allomalar ilmiy-ma'rifiy, madaniy-ma'rifiy merosini tiklash, uni o'rganish va keng targ'ib qilish, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini ko'rsatib berish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani, bunda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk ajdodlarimiz nomi bilan atalgan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlariga asos solinishi islom ilm-faniga e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala bu — farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi,

zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”.

Yoshlar tarbiyasi, sport, intellektual salohiyatni oshirish, kitob o'qish va mutolaa madaniyatini shakllantirish, yoshlarning ilmiy va bilimli bo'lishi, keng dunyoqarashga ega bo'lishi hamda jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi davlat siyosatining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, “Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblarga, jumladan, elektron asarlarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish” zarurdir.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib voyaga yetkazish, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash hamda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun yoshlarni san'at, madaniyat va sportga keng jalb qilish, ularga ma'naviy va intellektual rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ta'lim-tarbiyani innovatsion yondashuvlar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq allomalari ilmiy merosi so'nggi yillarda chuqur o'rganilib, ularning ilmiy va ma'naviy boyligi jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shmoqda. Buyuk mutafakkirlarning asarlari nafaqat o'sib kelayotgan avlod uchun bilim va tarbiya manbai bo'lib xizmat qiladi, balki yoshlarni ilmiy izlanishlar olib borishga, yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lishga undaydi.

Sharq allomalari qoldirgan ilmiy meros nafaqat diniy, balki tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, adabiyot, tarix va boshqa sohalarga oid asarlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson tafakkuri va ilm-fan taraqqiyoti borasida muhim g'oyalarni ilgari surgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy geodeziya, astronomiya va tabiiy fanlar bo'yicha beqiyos ilmiy izlanishlar olib borgan. Ibn Sino esa tibbiyot va falsafaga oid asarlari bilan butun dunyoda tanilgan. Ularning ilmiy ishlari hozirgi zamonaviy fan va texnologiyalar rivojiga ham zamin yaratgan.

Bugungi kunda yurtimizda allomalarning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida, ilmiy markazlarda va turli tadqiqot institutlarida Sharq mutafakkirlarining ilmiy ishlari chuqur tahlil qilinib, ularning g'oyalari zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bu esa yosh avlodni ilm-fan sirlarini o'rganishga, ulug' ajdodlarimizning bebaho merosiga hurmat bilan yondashishga undaydi.

Shuningdek, allomalarning asarlarini o'rganish yoshlarning intellektual salohiyatini oshirib, ularni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va ilmiy yutuqlarga intilishga ilhomlantiradi. Bu jarayonda ilm-ma'rifatga asoslangan ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. O'quv dasturlariga buyuk mutafakkirlarning asarlari, ularning ilmiy faoliyati va jamiyatga ta'siri haqida ma'lumotlar kiritilishi yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, Sharq allomalari ilmiy merosini o'rganish nafaqat bizga buyuk ajdodlarimizning yutuqlarini eslatadi, balki jamiyat taraqqiyoti va yangi ilmiy kashfiyotlar sari yo'naltiruvchi manba hamdir. Bu bebaho merosni chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish orqali biz o'zimizni, madaniyatimizni va ilmiy salohiyatimizni yanada yuksaltira olamiz.

Xulosa. Zamonaviy jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarning madaniyati, tarbiyasi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat jamiyatning axloqiy asoslarini belgilaydi, balki insonlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtiradi, adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti ushbu qadriyatlarning nechog'lik saqlanishi va amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq. Chunki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarni ezgulik, halollik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Hozirgi globallashuv jarayonida turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchayib, insonlarning dunyoqarashi kengayib bormoqda. Bu jarayonda milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ularni yosh avlod ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyatga boy jamiyat axloqiy buzilishlarga qarshi turish qobiliyatiga ega bo'lib, u yuksak madaniyat va ijobiy fazilatlarni asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazadi. Ayniqsa, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi

masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki aynan ular kelajakda jamiyatning taraqqiyoti va axloqiy asoslarini davom ettiruvchi avlod hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar asrida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash yanada dolzarb masalaga aylandi. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali turli madaniyatlarning aralashuvi yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, ularni axloqiy jihatdan to'g'ri yo'naltirish, ularga ezgulik, insonparvarlik, adolat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni singdirish jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning boshqa institutlari ham ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Oila farzand tarbiyasining asosiy o'chog'i bo'lib, unda insonning ilk axloqiy qarashlari shakllanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalari esa yosh avlodning bilim va tarbiya olishini ta'minlab, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu bois, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish har bir jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'naviyatga boy, axloqiy qadriyatlarni qadrlaydigan va ularga amal qiladigan jamiyat barqarorlikka, taraqqiyotga va kelajak avlodlar uchun mustahkam asos yaratishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: O'zbekiston. 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-sonli Qarori. Xalq so'zi 2019.2.01.
4. Mirziyoyev Sh. M "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: Tasvir nashriyoti uyi, 2021. -36b
5. Quronov M. Qodrova A. Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish: - Toshkent: Manaviyat nashriyoti, 2018.112b
6. Olimov S., Artikov O., Murodova M. The use of national values in forming the ecological world view of students //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 141. – S. 04027.
7. Ортиков О. Р. Махалла как социально-культурный очаг народа //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 20-23.
8. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – С. 160-165.
9. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – T. 2795. – №. 546X. – S. 55.

AHMAD DONISH TA'LIMOTIDA O'ZGARISHLAR FALSAFASI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN UYG'UNLASHUV

Jamolova L.I.,

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotasiya: Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxorodagi, yosh avlodning dunyoviy ilmlardan orqada qolayotganligi, davlatning ham ilmiy jihatdan anchagina qoqligi, mamlakatni adolatli odil hukmdorlar tomonidan boshqarish masalalari, jadidlarning ilm-fanni va madaniyatni rivojlantirishdagi hissi, innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi kundagi ahamiyati hamda Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" asaridagi hikoyatlardan ayrim fikrlar xususidagi pedagogik tahlillardan iborat.

Kalit so'zlar: "Navodir ul-vaqoye" asaridagi innovatsion texnologiyalarning yosh avlodga ta'siri, raqamli texnologiyalar, mehnatsevarlik, musavvir, kasb egallash, oqillarning mehnati, hunarmand, Allohning amri.

Аннотация: Во второй половине XIX века в статье содержится педагогический анализ того, что молодое поколение Бухары отстает в мирских науках, государство сильно отстает в

MUNDARIJA

Xamidov Obidjon Xafizovich. SAN'AT VA PEDAGOGIK TA'LIMDA AN'ANAVIY QADRIYATLAR HAMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI	3
--	---

I SHU'BA. SAN'AT VA PEDAGOGIK TA'LIMNING IJTIMOIIY-FALSAFIY VA ANTROPOLOGIK ASOSLARI

Safaraliyev B. S., Nasrullayeva N. Z., Motorina I. E. ATTRAKTIVNIYE RESURSY - OSNOVY DLYA PROEKTIROVANIYA KULTURNY - POZNAVATEL'NOGO TURA	5
M. B. Yuldashyeva, Yu. A. Tayshkanova, I. E. Motorina. POPULYARIZATSIYA KULTURNY-POZNAVATEL'NOGO TURIZMA I PRIOBYENIYE MOLODEZHI K TSENNOSTYAM KULTURNYNO NASLEDIYA.....	11
Tursunova M. G., Taygunshoyeva Ch. S., OSOBNENOSTI FORMIROVANIYE TOLERANTNOSTI V PODROSTKOVOM VOZRASTE.....	18
Smagulova Sh.K., Almatova N.A. SOVREMENNIYE TENDENTSIYI V IZMENENII TOPONIMOV KAZAKHSTANA.....	25
Suvanov O. IJTIMOIIY HAYOT RIVOJIDA GERONTOPEDEGOGIKA.....	30
Shokirova D.U. KITOBXONLIK MADANIYATI VA IJODIY TAFAKKUR	32
Saidova M.E. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXLOQIY IDEALNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK ASOSLARI.....	37
Saparova Sh.R. JADID MA'RIFATPARVARLARINING BOLALAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI HAMDA ASARLARINING PEDAGOGIK VA TARBIIYAVIY AHAMIYATI.....	39
Shonazarova I. OLIY TA'LIMDA TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	43
Nuriddinova D.I. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	46
O.R.Ortikov. ZAMONAVIY JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	48
Jamolova L.I. AHMAD DONISH TA'LIMOTIDA O'ZGARISHLAR FALSAFASI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN UYG'UNLASHUV	53
Shokirova M.B. BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI VA EKOLOGIK TA'LIMDAGI MUAMMOLAR	57
Olimova N.O. 7-SINFI O'QUVCHILARIDA «TARBIIYA» FANI ORQALI INSONPARVARLIK G'OYALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH	59
Abdumannotov Elbek Abdumajitovich. TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIIYALASHDA TURIZM PEDAGOGIKASINING MA'RIFIY TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH	62
Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. IMOM ISMOIL AL-BUXORIY ILMIY MEROSNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI.....	65
Jurayev B.T. SOMONIYLAR DAVRIDA KUTUBXONALAR TIZIMI VA ULARNING ILMIY-MA'NAVIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI.....	68
Жасмин Базарбай. ҚАЗАҚ ХАНДЫҒЫ ТҮСЫНДАҒЫ ӘЙЕЛ МӘСЕЛЕСІ ЖӘНЕ ИСЛАМНЫҒ ҚАЗАҚ ҚОҒАМЫНА ЫҚПАЛЫ.....	71
Муратбеков М.Б. ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЛЬ-ФАРАБИ КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ	78
Jumayeva M.A. PEDAGOGIKA TARIXINI O'QITISHDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	81
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. BUXORO MAKTAB VA MADRASALARINING TA'LIM VA TARBIIYA TIZIMIDAGI UZVIYILIGI	83